Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

SOTSIOLINGVISTIK ATAMALARNING BOSHQA FANLAR BILAN TIZIMLI BOG‘LIQLIGI

Dilorom Odiljon qizi Tojiboyeva*
FarDu mustaqil izlanuvchisi
✉ dilorom.tojiboyeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va etnografiya kabi fanlar bilan tizimli bog'liqligi tahlil qilinadi. Fanlararo aloqadorlik natijasida shakllangan sotsiolingvistik atamalarning kelib chiqishi hamda ularning qo'shni fanlar terminologiyasi bilan kesishuv nuqtalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda atamalarning birlamchi (yangidan yaratish) va ikkilamchi (terminologizatsiya) shakllanish qonuniyatlari asosida tahlil qilinib, sotsiolingvistikaning predmet sohasini aniqroq belgilashga xizmat qiluvchi omillar yoritiladi. Olingan natijalar sotsiolingvistika tushunchalar tizimini fanlararo nuqtayi nazardan chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar

terminologiya, etnografiya, psixolingvistika, sotsiologiya, ikkilamchi va birlamchi termin.

DOI: 10.5281/zenodo.21743029

KIRISH.

Sotsiolingvistika - tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va etnografiya tutashgan nuqtada rivojlanuvchi, tilning ijtimoiy tabiati, uning jamiyatdagi vazifalari hamda ijtimoiy omillarning tilga ta‘sir qilish yo‘llarini o‘rganuvchi fandir[1]. Ushbu fanning fanlararo xususiyati uning tushunchalar tizimida ham aniq aks etadi: sotsiolingvistik atamalarning katta qismi qo‘shni fanlardan o‘zlashtirilgan yoki ular bilan hamkorlikda shakllangan. Ijtimoiy tilshunoslikni ilmiy nuqtayi nazardan tuzilmalashtirishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan omil – sotsiolingvistika va boshqa fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash, ularning ilmiy sohalari kesishuv darajalarini yuzaga chiqarish bo‘yicha ishlar bo'lishi mumkin, buning natijasida aynan sotsiolingvistikaning predmet sohasini aniqroq belgilash va ajratib ko’rsatish imkoni tug‘iladi, bu esa ushbu ilmiy bilim sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur shartdir.

ASOSIY QISM.

Ushbu ishda bizning vazifamiz shunday tizimli tahlilning faqat kichik bir qismini qamrab oladi. Biz ijtimoiy tilshunoslik va boshqa fanlarning ilmiy o‘zaro ta’siri jihatlaridan bittasini ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan terminologiyaning umumiyligini o'rganish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqamiz va tahlil qilamiz. Yuqorida sotsiolingvistik ensiklopedik lug‘atdan keltirilgan ta’rifda ko‘rsatilganidek, sotsiolingvistika *to‘rtta fan* tutashgan nuqtada rivojlanadi[2]. Shunga ko’ra, sotsiolingvistikaning lingvistik fanlar bilan, birinchi navbatda tilshunoslik bilan bog‘liqligi eng aniq ko'rinadi: sotsiolingvistika ko'pincha tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida qaraladi. Aynan shu predmet sohasida eng samarali ilmiy o'zaro ta’sir yuz beradi, tadqiqotlar olib bori-

[1] Кириленко С. Процессы формирования понятийного аппарата социолингвистики: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2015. – С. 19.

[2] Словарь социолингвистических терминов / Сулейменова Э.Д., Шаймерденова Н.Ж. (ред.). – Алматы: Казак университет, 2002. – С.89.

ladi, yangi tushuncha va kontseptsiyalar ishlab chiqiladi. Tilshunoslikning tadqiqot sohalaridan olingan misollar asosida sotsiolingvistik atamalar ushbu kontekstda qanday faoliyat yuritishini ko'rib chiqamiz.

Sotsiolingvistika fanlararo fan bo‘lgani sababli, tilshunoslikning ba’zi muammolari sotsiolingvistlar uchun ham muhim tadqiqot sohasi hisoblanadi. Tilshunoslik “umuman tabiiy inson tili va uning barcha alohida vakillari sifatidagi dunyo tillari haqidagi fan”[3]. Tilshunoslik jamiyatdagi muloqot muammolarini, matnlar tuzish vositasi sifatidagi tilni va bevosita til matnlarini, matn tuzish qonuniyatlarini, tabiiy tilni o'rganadi. O‘z navbatida, sotsiolingvistika “tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, obyektiv ijtimoiy omillarning tilga ta’sir mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotidagi o'rni bilan boliq keng qamrovli muammolar majmuini o'rganuvchi tilshunoslik tarmog‘i” sifatida belgilanadi[4]. Til faqat inson jamiyatida mavjud bo'lib, psixik va ijtimoiy tomonga ega ekanligini I.ABoduen de Kurtene ham XX asr boshlarida qayd etgan edi[5]. Sotsiolingvistika eng yaqin aloqani tilshunoslik bilan saqlaydi: ko‘pincha u tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida qaraladi, chunki ikkalasi ham til variantlari, funksional uslublar va hududiy til shakllari (dialekt, sheva)ni tadqiq qiladi. Stilistika bilan bog‘liqlik “funksional uslub” tushunchasida namoyon bo‘ladi, biroq bu atama ikki fanda turlicha talqin etiladi: stilistikada bayon maqsadi asosiy o‘lchov bo‘lsa, sotsiolingvistikada so‘zlovchining o‘zini muayyan ijtimoiy guruh bilan tenglashtirishga intilishi asos qilib olinadi.

Ijtimoiy psixologiya bilan hamkorlik nutqiy xulq-atvor va uning namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganishda yaqqol ko‘rinadi: sotsiolingvistika til yoki til varianti tanlash jarayonini, ijtimoiy ruhshunoslik esa nutqning maqsadli, undovchi va bajaruvchi jihatlarini tahlil qiladi. Etnografiya bilan aloqadorlik madaniy xususiyatlarning tilda aks etishini o‘rganishda kuzatiladi etnoijtimoiy muloqot, millatlararo aloqalar, til nizolari kabi masalalar ikkala fan uchun ham dolzarbdir, biroq maqsadlari farqlanadi: sotsiolingvist eng kichik tilni ham alohida tadqiq etsa, etnograf ko‘pincha xalqlarning birlashuv jarayonlariga e‘tibor qaratadi.

Sotsiologiya bilan bog‘liqlik eng chuqur va tarixiy ahamiyatga ega: sotsiolingvistika aynan sotsiologiya va tilshunoslik tutashgan nuqtada tug‘ilgan bo‘lib, “sotsiolingvistika” atamasini ham sotsiolog X.Karri muomalaga kiritgan[6]. Ikki fan umumiy tadqiqot usullariga (kuzatish, so‘rov, intervyu) hamda umumiy muammolarga

(ijtimoiy tuzilma, rol va maqom bog‘liqligi) ega. Shu asosda yana ikki oraliq fan yuzaga kelgan: lingvosotsiologiya (til jarayonlarini ijtimoiy jarayonning bir qismi sifatida o‘rganadi) va til sotsiologiyasi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistikaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi nafaqat umumiy tadqiqot yo‘nalishlarida, balki umumiy atamalar tizimida ham namoyon bo‘ladi bu esa uning tushunchalar tizimini doimiy ravishda yangilab, boyitib boradi. Sotsiolingvistika tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va etnografiya bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadigan fan sifatida o‘z tushunchalar tizimini ham shu fanlar bilan hamkorlikda boyitib boradi. Ushbu jarayonda atamalar ikki asosiy qonuniyat – birlamchi (yangidan yaratish) va ikkilamchi (terminologizatsiya) shakllanish asosida yuzaga keladi. Kelgusida sotsiolingvistikaning tushunchalar tizimi yangilanib, boshqa fanlar bilan yangi terminologik aloqalar topishda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI.

1. Бодуэн де Куртенэ И. А. Некоторые общие замечания о языковедении и языке, 1871 // История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях: в 2 т. / сост. В. А. Звегинцев. – Т. 1. – М.,: Просвещение, 1964.
2. Вайнрайх У. Языковые контакты. Состояние и проблемы исследования. – Кв: Вища школа, 1979.
3. Кириленко С. В. Процессы формирования понятийного аппарата социолингвистики: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2015.
4. Пачев А. Малка енциклопедия по социолингвистика. – Плевен: Евразия-Абагар, 1993.

[3]Пачев А. Малка енциклопедия по социолингвистика. Плевен: Евразия– Абагар, 1993. – С. 125.

[4]Словарь социолингвистических терминов / Сулейменова Э.Д., Шаймерденова Н.Ж. (ред.). – Алматы: Казак университет, 2002. – С.79.

[5]Бодуэн де Куртенэ И.А. Некоторые общие замечания о языковедении и языке,1964. – С.236-268.

[6]Вайнрайх У. Языковые контакты. Состояние и проблемы исследования. – К.: Вища школа. – 1979. – С.122.

5. Словарь социолингвистических терминов / Э. Д. Сулейменова, Н. Ж. Шаймерденова (ред.). – Алматы: Қазақ университеті, 2002.